



O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI TA'LIMGA OID BITIMLAR VA DASTURLAR

Akbarov Bunyodjon Ilyosjon o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi ilyosjonovmuhammadbilol@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikning tarixiy asoslari, huquqiy poydevori va amaliy natijalarini yoritilgan. Shuningdek, maqolada mustaqillik yillaridan boshlab imzolangan madaniyat-ta'lim bitimlari, strategik kengash hujjatlari, ta'lim forumlari va so'nggi protokollarni tahlil qilib, turli markazlar, qo'shma fakultetlar, TEDA grantlari, Erasmus+ va YTB stipendiya dasturlari hamda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti kabi loyihalar, talabalar-o'qituvchilar almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar va madaniy aloqalarning roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Turkiya ta'lim hamkorligi, madaniyat-ta'lim bitimlari, qo'shma fakultetlar, TEDA grantlari, Erasmus+, YTB stipendiyalari, Turkiy davlatlar xalqaro universiteti, talabalar almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar, madaniy aloqalar.

Аннотация: В данной статье освещены исторические основы, правовая база и практические результаты сотрудничества между Узбекистаном и Турцией в сфере образования. В статье также анализируются культурно-образовательные соглашения, документы стратегического совета, образовательные форумы и последние протоколы, подписанные с момента обретения независимости, и раскрывается роль различных центров, совместных факультетов, грантов TEDA, стипендиальных программ Erasmus+ и ЕБРР, а также таких проектов, как Международный университет тюркских государств, обмен студентами и преподавателями, научные исследования и культурные связи.

Ключевые слова: Узбекско-турецкое образовательное сотрудничество, культурно-образовательные соглашения, совместные факультеты, гранты TEDA, стипендии Erasmus+, ЕБРР, Международный университет тюркских государств, обмен студентами, научные исследования, культурные связи.

Abstract: This article highlights the historical foundations, legal framework, and practical results of cooperation between Uzbekistan and Turkey in the field of education. The article also analyzes cultural and educational agreements, strategic council documents, educational forums, and recent protocols signed since independence, highlighting the role of various centers, joint faculties, TEDA grants, Erasmus+ and EBRD scholarship programs, and projects such as the International University of Turkic States, student-teacher exchange, scientific research, and cultural ties.

Keywords: Uzbek-Turkish educational cooperation, cultural and educational agreements, joint faculties, TEDA grants, Erasmus+, EBRD scholarships, International University of Turkic States, student exchange, scientific research, cultural ties.



KIRISH

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlik ikki mamlakatning strategik sherikligining muhim qismi bo'lib, turkiy xalqlarning umumiy madaniy va tarixiy merosiga asoslanadi. Hamkorlikning asoslari 1992-yilda diplomatik aloqalar o'rnatilgandan keyin qo'yilgan bo'lib, 90-yillarda 90 dan ortiq bitimlar imzolangan, ulardan bir qismi ta'lim va madaniyatga oid. 2010-2024 yillarda hamkorlik rivojlanib, maktab va oliy ta'limdagi qo'shma dasturlar, stipendiyalar va muassasalar tashkil etildi. O'tgan vaqt davomida bu hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi, bitimlar soni ortdi, qo'shma loyihalar va dasturlar faollashdi.

Ayniqsa, oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi va ilmiy almashinuv yo'nalishlarida sezilarli natijalar qo'lga kiritildi. Masalan, 2024-yil Istanbul shahrida o'tkazilgan Turkiya - O'zbekiston uchinchi ta'lim forumida ta'kidlanishicha, oliygohlar o'rtasida imzolangan hamkorlik shartnomalari soni 150 dan oshdi, keyingi uch yil davomida 800 nafarga yaqin o'zbekistonlik o'qituvchi va tadqiqotchilar Turkiyaga malaka oshirish, stajirovka, seminar va treninglarga yuborildi. Shuningdek, O'zbekistondagi oliygohlarda o'quv jarayonini tashkil etishga 500 nafardan ortiq turkiyalik o'qituvchilar jalb etildi hamda universitetlarimiz o'rtasida tashkil etilgan Double degree qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha 600 nafarga yaqin talabalar tahsil olmoqda⁷⁷.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim sohasidagi rasmiy hamkorlik bir necha asosiy hujjatlarga tayangan bo'lib, ular ikki davlat universitetlari va ilmiy muassasalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soladi. Jumladan, 1992-yil 16-martdagi "Madaniyat, ta'lim va fan sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim" ikki davlat oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar o'rtasida talabalar va ilmiy xodimlarni almashish, qo'shma ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda xalqaro seminar va konferensiyalarni tashkil etish imkoniyatlarini belgilaydi⁷⁸. Shuningdek, 2003-yilda hozirgi Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdoganning bosh vazir sifatida tashrifi doirasida ham oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy axborot almashish, o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish hamda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonlarini tartibga solish bo'yicha bir qator hujjatlar imzolangan.

Bundan tashqari, 2015-2024-yillarda imzolangan qo'shma dasturlar va memorandumlar ta'lim sifatini oshirish, malaka oshirish, turkiy tilli dasturlarni joriy qilish va qo'shma ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan. Bu davrda Turkiya O'zbekistonda maktab va universitetlar tashkil qilish, til o'qitish va talabalar almashinuvini rag'batlantirishga e'tibor qaratdi. Ushbu hujjatlar ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy asos bilan mustahkamlab, ta'lim sohasidagi qo'shma dasturlarni tizimli amalga oshirish uchun zarur infratuzilma yaratdi.

Quyidagi jadvalda ham ikki davlat o'rtasidagi ayrim dasturlarni ko'rish mumkin⁷⁹:

Bitim/Dastur	Mohiyati	Joriy holati
--------------	----------	--------------

⁷⁷ Turkiya - O'zbekiston uchinchi ta'lim forumi bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston milliy axborot agentligi matbuot xizmati.28.09.2024. Internet sayt: <https://uza.uz>.

⁷⁸ Turkiya Respublikasi Milliy ta'lim vazirligi matbuot xizmati. <https://www.meb.gov.tr>

⁷⁹ Turkiya Oliy ta'lim kengashi boshqaruvidagi rasmiy sayt. <https://www.study.inturkiye.gov.tr>



nomi va yili		
Yunus Emre madaniy markazi	Turk tili va madaniyatini targ'ib qilish	A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida ushbu markaz filialini ochish borasida ishlar davom etmoqda
Buxoro davlat tibbiyot instituti va Turk Tibbiyot fanlari universiteti o'rtasidagi qo'shma tibbiyot fakulteti (2019)	Tibbiyot sohasida qo'shma bakalavriat dasturlari; turk va o'zbek talabalari uchun double degree (qo'sh diplom) berish.	2025-yilda 500 dan ortiq talaba o'qishi reja qilingan. 2024-yilda birinchi 100 talaba qo'sh diplom oldi, kasbiy malaka oshirish dasturlari kengaytirildi.
TEDA (Tarjima va nashr grant dasturi)	Turk adabiyoti va madaniyat kitoblarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish; Yunus Emre asarlarning ilk nashrlari.	2024-yilda 20dan ortiq kitob nashr etildi. O'zbekiston kutubxonalariga 5000 nusxa tarqatildi, madaniy-ta'limiy almashinuvni kuchaytirdi.
Universitetlar o'rtasidagi hamkorlik shartnomalari	Toshkent davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan Turkiya universitetlari (masalan, Istanbul universiteti) o'rtasida 150+ shartnoma; talabalar va professor o'qituvchilar almashinuvi.	2024-yil III chorak holatiga ko'ra 500 nafar turk o'qituvchisi O'zbekiston universitetlarida dars bermoqda. Double degree dasturlari orqali 600 talaba o'qimoqda,
Turkiy davlatlar tashkilotidagi yoshlar siyosati dasturlari	"Turk davlatlari yoshlar platformasi"; talabalar almashinuv dasturi, startaplar va grantlar.	2024-yilda "Turk startaplar haftasi" o'tkazildi, Turkiy davlatlar xalqaro universiteti tashkil etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim hamkorligi yana bir qancha dasturlar orqali amalga oshirilmoqda. Ularning ijrosi ikki davlat universitetlari o'rtasida talabalar va o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Misol uchun:

Erasmus+ va bilateral almashinuv dasturlari: Erasmus+ va ikki tomonlama almashinuv dasturlari O'zbekiston talabalari va ilmiy xodimlari uchun Turkiya universitetlarida tahsil olish yoki ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratadi. Ushbu dasturlar doirasida talabalar bir yoki ikki semestr davomida Turkiya oliy ta'lim muassasalarida o'qish imkoniga ega bo'ladi. Erasmus+ dasturi doirasida O'zbekiston



talabalari va o'qituvchilarining akademik almashinuvi yildan-yilga ortib bormoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yildan buyon 3000 dan ortiq o'zbekistonlik talaba va xodim xalqaro kredit mobilitetida (ICM) qatnashgan bo'lib, 2021-2024 yillar davomida Markaziy Osiyo bo'yicha barcha almashinuvlarning 39 foizi O'zbekistonga to'g'ri kelgan. Erasmus+ 2025-yil uchun ta'lim sohasiga oid axborot varag'ida (Leaflet) o'zbekistonlik talabalar va xodimlar uchun 1423 ta mobilitet rejalashtirilgani qayd etilgan. Shuningdek, 2025-yilda 13 nafar o'zbekistonlik talaba Erasmus Mundus qo'shma magistratura dasturlariga qabul qilingan⁸⁰. Shu bilan birga, Turkiya universitetlaridan O'zbekistonga kelayotgan talabalar soni ham ortib bormoqda, bu esa ikki davlat o'rtasidagi ilmiy va madaniy almashinuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Almashinuv dasturlari orqali talabalarning nafaqat akademik bilimlari, balki xalqaro madaniy kompetensiyalari ham oshmoqda.

Turkiya hukumatining Stipendiya dasturlari (YTB dasturlari): Turkiya hukumatining Yurt tashqarisidagi Turkiya fuqarolari va xorijiy talabalar uchun ajratilgan stipendiya dasturlari (YTB) O'zbekiston talabalarini bakalavr va magistratura darajasida Turkiya universitetlarida tahsil olish imkoniyati bilan ta'minlaydi. Ularning aksariyati turkiy tilli dasturlar orqali o'qigan bo'lib, bu esa talabalar til va professional malaka sohasida tezkor o'sishiga yordam beradi. Stipendiyalar talabalarning turar joy, o'qish xarajatlari va kundalik ehtiyojlarini qamrab oladi, bu esa ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlaydi.

Qo'shma ilmiy loyihalar va o'qituvchilar almashuvi: O'zbekiston va Turkiya universitetlari o'rtasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qo'shma loyihalar ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu loyihalar:

- Qo'shma laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil etishni;
- Ilmiy konferensiyalar, seminarlar va vebinarlarni o'tkazishni;
- Ilmiy maqolalar va tadqiqotlarni birgalikda nashr etishni o'z ichiga oladi.

2020-2023-yillarda qo'shma ilmiy loyihalar natijasida 50 dan ortiq ilmiy maqolalar va ilmiy tadqiqotlar nashr etilgan. Bu esa ikki davlat universitetlari o'rtasida ilmiy almashinuv va professional tajriba bo'yicha samarali natija beradi. Shu bilan birga, qo'shma loyihalar talabalar va o'qituvchilarning malaka oshirishiga, zamonaviy pedagogik metodlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

2024 yil 6 iyun kuni Anqarada bo'lib o'tgan O'zbekiston-Turkiya Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi doirasida 19 ta hujjat imzolandi, ulardan bir qismi ta'lim sohasiga to'g'ri keladi⁸¹. Ushbu hamkorlik doirasidagi hujjatlarning aksariyati ta'lim bilan bog'liq asosiy hujjatlar hisoblanadi. Misol uchun qishloq xo'jaligi oliy ta'lim muassasalarida qo'shma dasturlar ishlab chiqish, davlat boshqaruvi sohasida malaka oshirish, huquqshunoslar uchun qo'shma treninglar, sertifikat dasturlari hamda

⁸⁰ O'zbekistondagi Erasmus+ Faoliyatlari - 2025 Yangilanishlari. Erasmus talim dasturi matbuot xizmati. Internet sayti: <https://erasmus.uz/en/publications/557-13-students-from-uzbekistan-have-been-admitted-to-erasmus-mundus-joint-master-s-programmes-in-2025>.

⁸¹ O'zbekiston va Turkiya rahbarlari har tomonlama strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish tarafdori ekanini ta'kidladilar// O'zbekiston Prezidentining matbuot xizmati//06.07.2024. <https://president.uz/>.



universitetlar o'rtasidagi tadqiqot loyihalari tashkil etish va talabalar almashinuvini rag'batlantirish kabi hujjatlardir.

2024-2025 yillarda hamkorlik strategik darajaga chiqdi. 2024 yil 27-28 sentyabrda Istanbulda o'tkazilgan Uchinchi O'zbekiston-Turkiya ta'lim forumida O'zbekistondan 30 ga yaqin, Turkiyadan 60 ga yaqin oliygoh vakillari ishtirok etdi. Forum doirasida 50 dan ortiq yangi shartnoma imzolandi, jumladan, Istanbul Ziya Gökalp universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti o'rtasidagi hamkorlik bitimi, shuningdek, Andijon davlat universiteti va boshqa turk oliygoxlari bilan double degree (ikki diplomli ta'lim) dasturlari, ta'limdagi raqamli texnologiyalar, til o'qitish va ilmiy tadqiqotlar mavzularini muhokama qildi⁸².

Shuningdek, 2025 yilda ta'lim hamkorligi amaliy loyihalar bilan boyidi. 2025 yil 13 fevral kuni O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov Turkiya elchisi Olgan Bekar bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati muhokama qilindi va yangi bosqichga o'tish bo'yicha takliflar qabul qilindi, jumladan, tajriba almashinuvi va qo'shma tashabbuslar shular jumlasidan. Uchrashuv natijasida oliy ta'limda yangi imkoniyatlar, xususan, turk universitetlarining dasturlariga asoslangan qo'shma loyihalar haqida kelishuvga erishildi⁸³.

Eng muhim loyihalardan biri - Turkiy davlatlar xalqaro universitetining Toshkentda tashkil etishga kelishuv bo'ldi. 2025 yil 27 yanvarda O'zbekiston Prezidentining PQ-24-sonli qarori bilan tashkil etilgan ushbu universitet 2025/2026 o'quv yilidan faoliyat boshladi. O'quv dasturlari Turkiyadagi jahon reytingida eng yaxshi 1000 ta universitet (masalan, Istanbul Texnika universiteti - ITU) dasturlariga asoslanadi⁸⁴. Universitet Turkiya va O'zbekistonning qo'shma loyihasi bo'lib, turkiy xalqlarning ma'naviy va ilmiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, Toshkentdagi O'zbek tili va adabiyoti davlat universitetida Yunus Emre madaniy markazi filiali ochilishi bo'yicha muzokaralar davom etmoqda. Bu loyiha madaniy va ta'limiy almashinuvni kuchaytiradi. 2025 yil 15 oktyabrda Toshkentda "Turkiy universitetlar ittifoqi (TURKUNIB)"ning 8-boshqaruvi o'tkazildi, unda O'zbekiston universitetlari faol ishtirok etdi⁸⁵.

Qolaversa, 2025 yil 1 noyabrda Samarqandda ikki davlat o'rtasida "Ta'lim, madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi" protokol imzolandi. Ushbu protokol Turkiya Milliy ta'lim vaziri va O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vaziri tomonidan imzolangan bo'lib, muddatsiz amal qiladi. Protokol ta'lim muassasalari uchun yer ajratish, ularni qurish, jihozlash va boshqarish, ta'lim tizimlarini yaqinlashtirish, tajriba almashinuvi, o'quv dasturlarini boyitish, qo'shma

⁸² Turkiya - O'zbekiston uchinchi ta'lim forumi bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston milliy axborot agentligi matbuot xizmati.28.09.2024. Internet sayt: <https://uza.uz/oz/posts/turkiya-ozbekiston-uchinchi-talim-forumi-bolib-otmoqda>

⁸³ O'zbekiston va Turkiya hamkorligi: oliy ta'limda yangi imkoniyatlar.// "O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron jurnal va internet portal//13.02.2025. <https://fledu.uz/language/uz/ozbekiston-va-turkiya-hamkorligi-oliy-talimda-yangi-imkoniyatlar/>

⁸⁴ O'zbekistonda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilishi to'g'risida/PQ-24/ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi» <https://lex.uz/en/docs/-7339500>

⁸⁵ Turkiy universitetlar ittifoqi 8-umumiy assambleyasi boshlandi.// "O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron jurnal va internet portal//15.10.2025. <https://fledu.uz/language/en/the-8th-general-assembly-of-the-union-of-turkic-universities>.



loyihalar va mutaxassislar almashinuvi kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bu hujjat ikki mamlakatning ta'lim diplomatiyasini yangi bosqichga olib chiqdi⁸⁶.

Talabalar uchun stipendiyalar hamkorlikning muhim qismidir. Turkiya Oliy ta'lim kengashi (YÖK) raisi Erol Ozvarning aytishicha, 2025 yilda o'zbek talabalari uchun Turkiyadagi doktorantura dasturlari uchun maxsus stipendiyalar joriy etilishi kutilmoqda. Umumiy Turkiya stipendiyalari (Türkiye Bursları) dasturi o'zbek talabalariga ochiq bo'lib, 2025 yil uchun ariza topshirish yakunlangan, ammo keyingi yillarda davom etadi. Bu dastur bakalavriat, magistratura va doktorantura darajalarini qamrab oladi⁸⁷.

Universitetlar o'rtasidagi almashinuv dasturlari ham faol: masalan, karera markazlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik va ilmiy loyihalarda talabalar ishtiroki kuchaymoqda. Oldingi yillarning talabalar almashinuvi dasturlari (masalan, 2022-yildagi Turk davlatlari platformasi) asosida 2025-yilda ham talabalar qatnashmoqda. So'nggi yillarda ko'p o'zbek talabalari Turkiya oliygohlarida ta'lim olmoqda, bu shu bilan birga joint degree (bu ikkita yoki undan ko'p universitet birgalikda ta'lim dasturini tashkil qilishi va talaba muvaffaqiyatli tugatganda bitta yagona diplom berishi tizimidir) dasturlari va professorlar almashinuvida ham natija bermoqda.

Xulosa

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim bitimlari va dasturlari 1992-yildan beri izchil rivojlanib, turkiy xalqlarning umumiy merosiga asoslangan strategik hamkorlikning yorqin namunasiga aylandi. Oldingi yillardagi kelishuvlar - litseylar tizimi, markazlar, double degree dasturlari va universitetlar o'rtasidagi shartnomalar - barqaror faoliyat ko'rsatib, ta'lim almashinuvining mustahkam poydevorini yaratdi. 2024-2025 yillardagi yangi hujjatlar, xususan, protokollar, strategik kengash bitimlari va ta'lim forumi shartnomalari bu asosni yanada mustahkamladi. Turkiy davlatlar xalqaro universiteti kabi loyihalar esa kelajak avlodlarga yo'l ochmoqda. Natijada, ikki mamlakat ta'lim sohasidagi hamkorligi nafaqat raqamlar va loyihalarda, balki turkiy dunyoning ilmiy va ma'naviy uyg'onishida ramziy ko'pri bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MATERIALLARI RO'YXATI:

1. Turkiya - O'zbekiston uchinchi ta'lim forumi bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston milliy axborot agentligi matbuot xizmati. 28.09.2024. Internet sayti: <https://uza.uz/oz/posts/turkiya-ozbekiston-uchinchi-talim-forumi-bolib-otmoqda>.

2. Turkiya Respublikasi Milliy talim vazirligi matbuot xizmati. Manba. <https://www.meb.gov.tr>

⁸⁶ Turkiya va O'zbekiston o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi protokol imzolandi/ Turkiya Respublikasi Milliy talim vazirligi matbuot xizmati. <https://www.meb.gov.tr/protocol-on-cooperation-in-the-field-of-education-between-turkiye-and-uzbekistan-signed/haber/38852/>

⁸⁷ Turkiyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar uchun stipendiya ta'sis etiladi/ O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali./06.06.2024. <https://gov.uz/en/news/view/13250>



3. Turkiya Oliy ta'lim kengashi boshqaruvidagi rasmiy veb sayt - Study in Türkiye.. <https://www.studyinturkiye.gov.tr/>

4. O'zbekistondagi Erasmus+ Faoliyatlari – 2025 Yangilanishlari. Erasmus talim dasturi matbuot xizmati. Internet sayti: <https://erasmus.uz/en/publications/557-13-students-from-uzbekistan-have-been-admitted-to-erasmus-mundus-joint-master-s-programmes-in-2025>.

5. O'zbekiston va Turkiya rahbarlari har tomonlama strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish tarafdori ekanini ta'kidladilar// O'zbekiston Prezidentining matbuot xizmati//06.07.2024. <https://president.uz/>.

6. Turkiya - O'zbekiston uchinchi ta'lim forumi bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston milliy axborot agentligi matbuot xizmati.28.09.2024. Internet sayti: <https://uza.uz/oz/posts/turkiya-ozbekiston-uchinchi-talim-forumi-bolib-otmoqda>

7. O'zbekiston va Turkiya hamkorligi: oliy ta'limda yangi imkoniyatlar.// "O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron jurnal va internet portal// 13.02.2025. <https://fledu.uz/language/uz/ozbekiston-va-turkiya-hamkorligi-oliy-talimda-yangi-imkoniyatlar/>

8. O'zbekistonda Turkiya davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilishi to'g'risida/PQ-24/ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi» <https://lex.uz/en/docs/-7339500>

9. Turkiya universitetlar ittifoqi 8-umumiy assambleyasi boshlandi./ "O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron jurnal va internet portal//15.10.2025. <https://fledu.uz/language/en/the-8th-general-assembly-of-the-union-of-turkic-universities>.

10. Turkiya va O'zbekiston o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi protokol imzolandi/ Turkiya Respublikasi Milliy talim vazirligi matbuot xizmati. <https://www.meb.gov.tr/protocol-on-cooperation-in-the-field-of-education-between-turkiye-and-uzbekistan-signed/haber/38852/>

11. Turkiyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar uchun stipendiya ta'sis etiladi/ O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali./06.06.2024. <https://gov.uz/en/news/view/13250>

Internet saytlar

1. dailysabah.com

2. yee.org.tr

3. trt.net.tr

4. gazeta.uz

5. lex.uz

6. <https://president.uz>